



MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI

*Shukurov Xursan Gadoyevich
Norova Intizor Haqberdiyevna
Matematika fani o'qituvchilari
BuxMTI akademik litseyi*

Annotatsiya: Maqolada matematika darslari davomida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritilgan va ulardan foydalanishga doir misollar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: ta'lim-tarbiya, interfaol, o'qituvchi, o'quvchi, tarbiya, dars, metod.

Mamlakatimizda hozirgi paytda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. Fan-texnika va axborotdagi revolyutsiya inson va uning ilmiy-ma'rifny potentsialini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqaro mexnat taqsimotida munosib o'rin egallash, milliy iqtisodiyotning raqobat- bardoshligini ta'minlash muammolari ko'p jihatdan ish kuchining bilimi, malakasi, vaziyatga qarab ish tuta olishiga bog'liq. Kelajakda erishishimiz lozim bo'lgan buyuk maqsadlarga erishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak.

Matematika fanini rivojlanishini asoslari, boshqa fanlarini rivojlanishi kabi, insoniyat faoliyatining amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Fanning rivojlanishi bu ishlab chiqarishning shakllanishi bilan asoslanadi. Matematika, boshqa fanlar kabi, odamlarning amaliy ehtiyojlari natijasida vujudga keldilar: er maydonining yuzalarini ulchash, idishlarning sig'imini o'lchash, vaqtni o'lchash va mexikaning elementlaridir. F.Engels.Andi - Dyuring. Haqiqatan ham matematikaning turli bulimlari real dunyoning fazoviy formalarini va miqdoriy munosabatlarini o'rganishda o'zining metodlarining turli tumanligi bilan ajralib tursada, yagonaligi va umumiyliigi bilan yaxlit birlashtirib turadi. Matematika fanining mazmuni quyidagicha;

1) uning rivojlanish jarayonida yig'iladigan - faktlar;



2) faktlar asosida ilmiy tasavvurning shakllanishi - gipoteza. O'z o'rnida bu tajriba orqali tekshiriladi;

3) faktlar va tajribalar natijalarini umumlashtirish hamda ularni nazariya va qonunlar ko'rishiga keltirish;

4) nazariya va qonunlarni o'rganish, matematikani o'rganishni xarakterlaydigan umumiy yo'nalishlarni ifodalovchi metodologiyani yaratish.

Mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarishni o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, buni amalga oshirish uchun bizga, eng avvalo, yangi avlod kadrlari kerak. Ana shunday yuksak salohiyatli kadrlarni tarbiyalash maqsadida yurtimizning har bir hududida bittadan yangi tipdagi maktablar - Prezident maktablarini tashkil etishni rejalashtirganmiz", - degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekistonning har bir hududida Prezident maktablari tashkil etildi. Prezident maktablarining asosiy maqsadi mamlakatimizning har bir viloyatida iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning rivojlanishiga kerakli sharoitlar yaratishdan iborat. Mazkur maktab bitiruvchilari kelajakda mamlakatimiz rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishlari kerak. Prezident maktablari STEAM (Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)) fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan bo'lib. yoshlarga matematika, fizika, kimyo, biologiya va axborot texnologiyalari hamda xorijiy tillar ilg'or ta'lim metodologiyalari asosida chuqur o'rgatilib kelinmoqda.

“Kamalak” usuli . Bu usulni biror bob yoki bo'lim yuzasidan o'tkazish mumkin. Bunda birinchi ustindagi asosiy tushunchalar har xil ranglarda beriladi. Jadvalning qolgan qismlarida so'zlar aralash yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ushbu tushunchalarni asosiy tushuncha ranglariga mos ranglarda ifodalashlari shart. Bunda jadval bo'yatiladi yoki yopishuvchi rangdor qog'ozlar to'plamidan foydalanib to'ldiriladi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, bir paytning o'zida 9 nafar o'quvchining bilimi sinab ko'riladi. Dastlabki holati

Topshiriq javoblari albatta tahlil qilinadi. Noto'g'ri belgilangan tushunchalar to'g'rilanadi. Bu topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchilar bir ballni qo'lga kiritishadi.

”Pochta qutisi” usuli. Bu usulni guruhlarda ham, kichik juftliklarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarga turli mavzular yuzasidan aralash atama va tushunchalar aralash holatda beriladi. Pochta qutisi berilgandan so'ng o'quvchilarga quti ichidagi so'z yoki atamalarni mos tarzda ajratishi aytiladi. Topshiriqni bajarish uchun so'zlar soniga qarab vaqt beriladi.



”Topib ko’rchi” usuli. Bunda o’quvchilardan bir nafari doskaga chiqadi. Fanga oid rasmlardan birini doskadagi o’quvchi orqasidan o’tirganlarga ko’rsatadi. O’tirgan o’quvchilar shu rasimga tegishli tushunchalarni aytib boshlaydi. Doskadagi o’quvchi rasmda nima tasvirlanganligini topadi. Shaxmat jadvali Bunda o’quvchilar “oq” kataklarga “qora” kataklardagi belgi va xususiyatlarga tegishli javoblarni yozishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Monografiya Toshkent, 2003.
2. Asqarov I.R., To’xtaboyev N.X., G’ofurov K.G. 9-sinf uchun darslik. Toshkent. 2019
3. N.N.AZIZXO’JAYEVA Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma. -T.: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. 2006, 160 b.